

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASH

Asrorov Uchqun Akram O'g'li

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti Iqtisodiyot fakulteti magistri

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq sharoitida aholi bandligini ta'minlashga doir ba'zi muammolar hamda ularning yechimlari bo'yicha muallifning fikrlari keltirilgan. Bundan tashqari, ushbu sohani raqamlashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli xizmat, raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, bandlik, ish kuchi, faol aholi, islohotlar, dasturlar.

**Mavzuning dolzarbligi:**

Hozirgi kunda, jahon miqyosida jami qashshoq aholining 30 foizi shahar joylarida 70 foizi qishloq joylarda yashovchi aholidir<sup>1</sup>. Shu sababli globallashtirish sharoitida qashshoq va kambag'al aholi qatlamini kamaytirish maqsadida qabul qilinayotgan iqtisodiy chora tadbirlar yuqori ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda kambag'al aholi sonining ulushi 2023 yilda jami aholining 14 foizini tashkil etgan<sup>2</sup>. Shundan kelib chiqib yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub maqsadi – insonlarning manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilish va mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash orqali ularning turmush darajasi va sifatini oshirishdan iborat. Shu maqsadlarda aholini ish bilan band qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish, turmush sifatini va farovonligini oshirish masalasi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda ham kambag'allikni qisqartirish maqsadida iqtisodiyot sohalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, investitsiya jalb etish, tadbirkorlik sube'ktlariga imtiyozlar berish va aholi bandligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Yangi ish o'rinlarini yaratish, qishloq aholisi turmush darajasini shahar aholisi turmush darajasiga qadar ko'tarish"<sup>3</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>4</sup>gi farmon bu boradagi ishlar ijrosida dasturilamal bo'lmoqda.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Moliya vazirligi tomonidan aholi bandligini ta'minlash bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqildi. «Yo'l xaritasi» Prezidentning «Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zAda e'lon qilingan qarori bilan ma'qullandi<sup>3</sup>. Unda quyidagidek:

- Shaxsiy tomorqa va dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida issiqxonalar tashkil etish, urug'liklar, ko'chatlar, chorva mollari va parrandalar, qishloq xo'jaligi inventari va uskunalari, sug'orish moslamalari (nasoslar, artezian quduqlari va boshqalar) xarid qilish;
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va qadoqlash, qurilish materiallari, oziq-ovqat va nooziq-ovqat iste'mol mollari ishlab chiqarish uchun zamonaviy mini-uskuna va xom ashyo xarid qilish;

<sup>1</sup> <https://www.undp.org/content/undp/en/home.html>

<sup>2</sup> <https://daryo.uz/2023/08/02/oyligi-50-dollardan-oshmaydigan-ozbekistonliklar-soni-qancha>

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларга янада ривожлантириш бўйича қабул қилинган

Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон Фармони. [lex.uz/acts/3107036](http://lex.uz/acts/3107036)

<sup>4</sup> <https://lex.uz/acts/-4776669>

- Xizmat ko'rsatish sohasida, ayniqsa, maishiy, ta'mirlash, ta'lim, tibbiy, axborot-kommunikatsiya va boshqa talab yuqori bo'lgan sohalarda faoliyat ko'rsatadigan korxonalar tashkil etish va jihozlash;
- Qishloq tumanlarida, ayniqsa, xotin-qizlar o'rtasida kasanachilikni rivojlantirish;
- Tuman va shaharlarning ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, mavjud mineral xom ashyo, yer, qishloq xo'jaligi va boshqa resurslarni hisobga olgan holda boshqa yo'nalishlar;

Aholi bandligini ta'minlashda, ishchi kuchida samarali foydalanishga doir O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonun, Prezident farmonlari, qarorlari Vazirlar Mahkamasining qarorlari va bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi sohada muhim o'zgarishlarga zamin yaratmoqda. Qayd etish joizki, qishloq joylarida aholini mehnatga jalb etish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda ishchi kuchidan samarali foydalanish borasida bir qancha muammolar hamon dolzarbligicha qolmoqda.

O'zbekistonda aholi farovonligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish, manzilli ijtimoiy himoya masalalarini bevosita aholi yashash joylarida (mahallalarda) ko'rib chiqiladigan, boshqa xorijiy mamlakatlardan farq qiluvchi mahalla milliy modeli amalga oshirilmoqda. Mazkur tamoyil asosida bir qator institusional islohotlar amalga oshirilib, boshqaruv tizimi isloh qilinmoqda, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning barcha sohalarida aholi va fuqarolik jamiyatining keng ishtiroki orqali demokratiyaning rivojlanishi ta'minlanmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri). A.O'Imasov, A.Vahobov. –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014.
2. Abdurahmonov Q. X. Mehnat istisodiyoti. – T.: Mehnat 2009
3. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T., «Media» nashriyoti, 2013. - 794 b.
4. Iqtisodiy ta'limotlar asari. A. Smit
5. The Theory of Economic Growth. W Arthur Lewis.

## Internet saytlari:

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.
2. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti
3. <https://mehnat.uz/uz/news/2019>
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) - bilimlar sayti;